



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



KORPUS LINGVISTIKASIDA DINIY MANBALARGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI

ANALYSIS OF RESEARCH ON RELIGIOUS SOURCES IN CORPUS LINGUISTICS

Fayiza Tursunboyeva Abduraxmat qizi

Tadqiqotchi

fayizatorsunboyeva@gmail.com

+998903031399

ORCID: 0009-0003-4266-0541

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026/WXMX4773](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026/WXMX4773)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada islom dinining korpus lingvistikasida o‘rganilishi yoritilgan. Ba‘zi manbalarni saralab olgan holda adabiyotlar tahlili ko‘rinishida taqdim etildi. Maqolaga ko‘ra, xalqaro ilmiy maydonda islomning korpus lingvistikasida o‘rganilishi sustroq ekanligi, ammo diniy kontekstlar, xususan, islom dinini korpus lingvistikasiga yondashgan holda o‘rganilishi va zaruriyati ba‘zi tadqiqotlarni keltirish bilan qisman ochib berishga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Islom, korpus lingvistikasi, adabiyotlar tahlili, til, diniy kontekst, diniy til.*

Annotation. *This article sheds light on the study of Islam in corpus linguistics. It is presented as a literature review, with a selection of sources. According to the article, it attempts to partially reveal that research on the study of Islam in corpus linguistics in the international scientific arena is relatively scarce, and that the necessity and study of religious contexts particularly Islam from a corpus linguistic perspective are partially illustrated by citing several studies.*

Keywords: *Islam, corpus linguistics, literature review, language, religious context, religious language.*

Korpus lingvistikasi so‘nggi davrda ko‘plab o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda: so‘z va iboralarni qo‘lda to‘plashni talab qiladigan qo‘l mehnatidan tortib to bugungi kunning multimodal ma‘lumotlar va hisoblash usullari ham sohani ilg‘or fanga aylantirmoqda [Mohsin Ali, 2026]. Prof. M.Abjalova o‘z uslubiy qo‘llanmasida korpus lingvistikasi tarixiga nazar solib, bugungi kunga qadar sohaning ko‘p asrlik davriy tarixga ega ekanligi va sohada materialni saqlash shakli bugungidek elektron emas, balki kartoteka uslubidan foydalanilganligini keltirib o‘tadi [Abjalova, 2022: 10]. Bu fikrlarni qo‘llab-quvvatlagan holda har bir sohaga integratsiya bo‘la oladigan kompyuter lingvistikasi bugun keng o‘rganilayotganligini ta‘kidlab o‘tish joiz. KL (Korpus lingvistikasi) rivojlanib kelayotgan davrlardan beri turli soha va mutaxassisliklar, shuningdek, din bilan korpus lingvistikasi munosabatlari ham

o'rganilib kelinmoqda [Tursunboyeva, 2025]. Shu o'rinda bugun dolzarbli ahamiyati oshayotgan til va dinning munosabatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini yana bir bor ta'kidlash joiz. [Stephen, 2024: 2]. Tilshunos olim Stephen Pihlaja “Korpus lingvistikasi, til va din” nomli maqolasida “Diniy til” terminini tilga oladi. Olimning fikrlariga ko'ra, turli dinlarning har biri qamrab olgan diniy marosimlar, imon, e'tiqod tushunchalarining ifodalanishini o'zi “Diniy til”ni aniq ko'rsatib beradi. Shuningdek olim P.Stephen diniy til turli dinlarning muqaddas manbalari, diniy ifodalar va diniy maqsadlar keltirilgan kontekstlardagi leksiko-grammatik strukturalar va so'zlarni asosiy qamrov sifatida o'z ichiga olishini ta'kidlaydi.

Korpus lingvistikasida dinga taalluqli ilmiy ahamiyatga ega tadqiqotlar keng qamrovli bo'lsa-da xalqaro miqyosda ko'plab olimlarning tadqiqot ishiga aylanib ulgurgan. Jumladan, xristian teologiyasini o'rganuvchi Prof. A.Stefan va Prof. K.Constantin muallifligidagi “Ilohiylik” va “Din” so'zlarining subyektiv ta'riflarining korpus tahlili” nomli maqolasi ham bunga yaqqol namuna bo'lishi mumkin. Xalqaro maydonda xristianlik, buddizmni korpus lingvistikasida o'rganilishi [Nandan, 2025: 2] kengroq tus olgan bo'lsa-da, islomiy manbalarning korpus lingvistikasidagi o'rni ham keng rakursda ochishga harakat qilinmoqda.

Islom dini o'rganilishida asosiy manba sifatida ushbu dinning muqaddas manbalari hisoblangan Qur'on va hadisga tayaniladi [Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2019]. Shu sababdan ham korpus lingvistikasidada ham islom diniga tayangan holda amalga oshirilgan tadqiqotlar aynan Qur'on va hadisni asosiy obyekt sifatida olayotganligini ko'plab ilmiy matnlarda ko'rish mumkin. Olim Muhammad Sukri bin Ramli ham Qur'on korpusining miqdoriy topologiyasini o'z tadqiqotlarida chuqur tahlil qilganligi yuqoridagi mulohazaning isboti sifati keltirib o'tildi [Muhammad, 2026]. Mazkur tadqiqotchi o'z ilmiy tadqiqotlarida Qur'on va undagi leksik birliklarni miqdoriy jihatidan o'rgangan holda turli mavzularda, xususan, toponimlarni tadqiq qilganligi o'rganildi. Muallif Muhammad Sukri o'z ilmiy axborotnomasida toponimlarni miqdoriy o'lchash uchun dasturiy tuzilma (framework) ishlab chiqqan. Va bu o'lchovlarni turli jihatdan qo'llash orqali “Yagona semantik yadro” ochilishini ko'rsatib bera olgan.

Korpus lingvistikasida islomiy metaforalarni o'rgangan tadqiqotchilar Norasyikin va Faizah esa o'z tadqiqotlarida islomiy kontekstlardagi metaforalarni amaliy tilshunoslik sohasiga yondashgan holda tahlil qilib, korpus lingvistikasida metaforalar o'rganilishini tadqiq qilgan. Muallif inson muloqotida muhim rol o'ynaydigan metaforalarni turli diniy diskurslarda, turli jins vakillari orasida o'rgangan bo'lib, tadqiqotni erkak (Nomon Alixon) va ayol (Yasmin Mujohid) larning diniy motivatsion nutqlaridagi metaforalarni tahlil qilgan.

Diniy nutqda til ishlatilishini korpus asosida tadqiq etgan olimlardan Muhammad Nofal esa korpus lingvistikasi va islom dinini o'rganilishini yangi muqtabi nazardan ochib bergan [Muhammad, 2023]. Muallif o'z maqolasida til va din o'rtasidagi o'zaro ta'sir institutsional kontekslarda e'tiborga olinmaganligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda korpus lingvistika usullari diskurs tahlili yondashuvi bilan birgalikda Yangi Zelandiyadagi kampus ichidagi ibodat joyida taqdim etilgan 182 ta ingliz tilidagi juma xutbalarida arab tilidan foydalanishni o'rganib, tahlil qilgan. Quyidagi jadval orqali xutbalarda "Allah", "God" va "Rabb" so'zlarining klaster tahlilini ifodalagan:

A. ALLAH	B. GOD	C. RABB
ALLAH'S	GOD'S	AMIN YA RABB AL-ALAMIN
ALLAH SWT	GOD HAS	
ALHAMDU LILLAH	GOD-CONSCIOUSNESS	
RASULU ALLAH	GOD DOES (NOT)	
MAY ALLAH	RELATIONSHIP WITH GOD	
INSHA ALLAH		
SUBHAN ALLAH		
ASTAGHFIRU ALLAH		
ALLAHU AKBAR		
MASHA ALLAH		

Xulosa qilib aytganda, bugun korpus lingvistikasi keng rakurslarda o'rganilayotganligi islom dinini ham chuqur o'rganilishi zaruriyatini taqazo etmoqda. Professor Abjalova M. ta'kidlaganidek, ikki til yoxud bir tilning ikki xil xususiyatiga xos matnlar jamlangan parallel korpuslar bugunki kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib ko'plab lingvistik muammolarga amaliy yechim bo'la oladi [Abjalova, 2023]. Jumladan, bu kabi parallel korpuslar ona tilisi arab tili bo'lmagan xalqlarning islom dinini tadqiq qilish zaruriyati uchun amaliy lingvistik yondashuvga yaqqol misoldir. Shuningdek, prof. M. Abjalova o'z tadqiqotlarida lingvistik (leksik) korpus yohud til (matnlar) korpusi muayyan lingvistik muammolarni hal qilishga mo'ljallanganligi, maxsus saralangan va teglangan elektron shakldagi matnlar majmuasi hisoblanishi va pragmatik ahamiyatga ega yirik elektron baza sanalishini ham ta'kidlaydi [Abjalova, 2022: 6]. Ushbu ilmiy asosga tayangan holda korpus tabiiy tillarni qayta ishlashda diniy manbalarga lingvistik yondashuv dolzarbligini yana bir karra xulosa qilish mumkin. Yuqoridagi maqolada diniy manbalarning korpus lingvistikasiga yondashgan holda o'rganilishi ba'zi mavzular tahlili orqali keltirildi.

Adabiyotlar:

1. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo'llanma / M.A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.
2. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo'llanma / M.A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.
3. Abjalova M. Parallel korpuslarni yaratish asoslari. // «Kompyuter lingvistikasining zamonaviy texnologiyalari – CTCL.2023» mavzusida vazirlik miqiyosidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – Toshkent, 14.04.2023. – B. 37-43.



4. Mohammed Nofal. A Corpus-Driven Exploration of Language Use in Religious Discourse. *Journal of Research in Applied Linguistics*. – 2023.
5. Mohsin Ali. Nadeem Ali. Muhammad Khuram. CORPUS STUDIES, CURRENT TRENDS AND FUTURE DIRECTIONS. *CONTEMPORARY JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE REVIEW* Vol.04 No.01. – 2026.
6. MUHAMMAD SUKRI BIN RAMLI. Raw Data. Quantitative Topology of the Quranic Corpus. – 2026.
7. Nandan, Mahit et al. “Comparative Analysis of Religious Texts: NLP Approaches to the Bible, Quran, and Bhagavad Gita.” *COLING Workshops* (2025).
18. Norasyikin Abdul Malik & Faizah Mohamad “Metaphor, Religion, and Gender: A Case Study of Metaphor Analysis in Islamic Motivational Speech Corpus. – 2021.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Sahihul Buxoriy”, 1-juz. “Hilol-nashr”, Toshkent – 2019.
9. Stephen P. *International Encyclopedia of Language and Linguistics*. Edition: 3. Chapter: Corpus Linguistics and Religion and Language. Book. – 2024. DOI: [10.1016/B978-0-323-95504-1.00473-7](https://doi.org/10.1016/B978-0-323-95504-1.00473-7)
10. Tursunboyeva F. THE ROLE OF CORPUS LINGUISTICS IN RELIGIOUS TEXTS. Toshkent. Conference paper. – 2025.